

Madaminova Shaxodat Shomurotovna
Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi
madaminovashaxodat@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI DIDAKTIK O'YINLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL QILISHNING NAZARIY - METODIK ASOSLARI

***Annotatsiya.** Maqola boshlang'ich ta'lim tizimida didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilishning nazariy - metodik asoslari masalasiga bag'ishlangan. Unda boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanish pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan hamda didaktik materiallarni yaratish tamoyillari va unga qo'yiladigan talablar o'rganilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanish o'qitishning samaradorligini oshirish omili ekanligi tavsiflangan.*

***Kalit so'zlar:** didaktika, pedagog, mashg'ulot, didaktik jarayon, didaktik o'yin texnologiyasi.*

ТЕОРЕТИКО - МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация.** Статья посвящена вопросу теоретико - методических основ организации начального образования по родному языку и грамотности чтения на основе дидактических игровых образовательных технологий. В нем анализируется использование дидактического материала в начальном образовании как педагогическая проблема, а также изучаются принципы создания дидактического материала и требования к нему. Также было описано, что использование дидактического материала в процессе начального образования является фактором повышения эффективности обучения.*

***Ключевые слова:** дидактика, педагог, обучение, дидактический процесс, технология дидактической игры.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING ELEMENTARY SCHOOL CLASSES ON THE BASIS OF DIDACTIC GAME EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

***Annotation.** The article is devoted to the problem of increasing the effectiveness of lessons through the use of didactic materials in primary education. It analyzes the use of didactic materials in primary education as a pedagogical problem and explores the principles and requirements for creating didactic materials. It is also described that the use of didactic materials in primary education is a factor in increasing the effectiveness of teaching.*

***Keywords:** didactic, pedagog, training, didactic process, didactic game technology.*

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning takomillashtirilgan o'quv-didaktik ta'minoti modernizatsiyalashtirilmoqda. Hukumatimizda qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar ta'lim tizimidagi islohotlarning asosi bo'ldi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlashda didaktik materiallardan unumli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va unga innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "o'qitish

usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Keltirilganlarga ko'ra boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik materiallarning xususiyatlarini aniqlashtirish, dars jarayonida ularni unumli qo'llash masalasini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Ta'lim beruvchi mutaxassis didaktik jarayon, metod, usul, vosita, pedagogik omil, metodik omil, o'quv materialini rejalashtirish istilohlarining ma'nolarini bilishi, farqlashi lozim. Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Didaktik jarayon barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun eng muhim bo'lib, bu jarayon shaxsning tanlovni amalga oshirishi uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Mazkur jarayonda muayyan o'quv vositalari o'zlashtiriladi va qo'llaniladi. Didaktik jarayonning tarkibi 3 ta o'zaro aloqador qismlarni o'z ichiga oladi: 1) o'quvchilarni yo'naltiruvchi; 2) o'quvchilarning shaxsiy bilish faoliyatlarini amalga oshiruvchi; 3) o'qituvchi tomonidan mazkur faoliyatning boshqarilishini ta'minlovchi qismlar [5]. Ushbu qismlar barcha didaktik jarayonlarda birday amal qiladi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quv materialini, tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatishni ta'minlashi, o'quvchilarning o'qimishlilik darajasi, vaqt kabi didaktik omillarni hisobga olishi lozim. Ma'lumki, 2020-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jahon miqosida "O'qish va uni tushunish sifati" bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot dasturini o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalariga ko'rsatma berdi. 2021-yildan PISA va PIRLS nazorat dasturida ishtirok etish rejalashtirildi. Ta'lim sifatini jahon standartlariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish o'qitish shakllari, metodlari va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilish Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchlarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchlarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi [3].

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar	Mavzu mazmuni qanday bo'lganda mazkur mashg'ulotdan foydalaniladi	Mashg'ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabning faoliyati
Syujetli-rolli	Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash
Ijodiy o'yin	Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish
Ishbilarmonlar o'yini; Auktsion	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida o'quvchlarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash	Auktsionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish
Konferensiya	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash	"Olimlar" maqomini olib, muayyan mavzularda izlanishlar olib borish
Matbuot konferensiyasi	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, o'quvchlarning avval o'zlashtirgan	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish,	"Olimlar" va "Muxbirlar" maqomini olib

	bilimlaridan foydalanish lozim bo'lganda	darslik, adabiyotlar bilan	ilmiy-ommabop mustaqil ishlash	mavzuni o'zlashtirish
--	--	----------------------------	--------------------------------	-----------------------

O'qituvchi bu didaktik o'yinlarni foydalanar ekan demak uning oddiydan murakkab prinsiplariga amal qilishlari lozim, albatta. Buning uchun o'yin tarzida modellashtirish texnologiyasiga asoslanish kerak.

❖ Ishchanlik o'yini darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchi-talabalarining faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mumkin.

❖ Formulalar darsi - o'quvchi-talabalarining formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi manlar o'tkazish darsi.

❖ O'yin darsi - dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchi-talabalarining o'zlashtirishlarini tashkil qilish darsi.

❖ Integral (integratsiyalashgan) dars - bir nechta fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchi-talabalarining turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

❖ "Mo'jizalar maydoni" darsi - o'quvchi-talabalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida turli javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchi-talabalarda fikrlash, topqirlik, ziyorlik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Misol qilib Venn diagrammasi metodini ko'rib chiqamiz:

Venn diagrammasi (RKMCHP uslubiyatidan)

Ta'rifi

Ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko'rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g'oyalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo'sh joylar tafvutlarni yozish uchun ishlatiladi; doiralar kesishganda hosil bo'lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi.

Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda savollarni ma'lum o'quv mavzusiga va har qanday yoshdagi o'quvchilar guruhlariga moslashtirishda ham individual, ham guruh bo'lib ishlash uchun qo'llaniladi.

Afzalliklari

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, predmetlar, hodisalar va shu kabilarning ham farqi, ham o'xshash jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Qiyinchiliklar

Aniqlanmagan.

Matematika darslarida "Venn diagrammasi" metodi

"Venn diagrammasi" metodi ikki yoki undan ortiq tushuncha va ob'ektlarni o'zaro taqqoslash va natijani chizmada tasvirlash uchun xizmat qiladi. U mantiq nazariyasi bilan shug'ullangan ingliz olimi Jon Venna (1834—1923) nomi bilan atalgan.

U odatda ikkita aylanadan iborat bo'lib, har bir aylana biror bir o'ektning xususiyatlari to'plamini belgilaydi. Ikki ob'ektning o'xshash, bir xil xususiyatlar bor bo'lsa, bu ob'ektlarni tasvirlovchi aylanalar bir-biri bilan kesishadi. Agar ularning bir xil, o'xshash xususiyatlari yo'q bo'lsa, bu aylanalar o'zaro kesishmaydi.

Ikki aylana uchun umumiy bo'lgan kesishish sohasida ularning bir xil o'xshash xususiyatlari, qolgan sohalarda esa ob'ektlarning bir-biridan farqli xususiyatlari joy oladi.

Ikkitadan ortiq ob'ektlar o'zaro taqqoslanayotganda, mos ravishda ikkidan ortiq aylanalardan foydalaniladi.

"Venn diagrammasi" metodidan foydalanishdan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarda ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, ularning farqli va umumiy tomonlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va har bir guruhga bittadan ob'ekt (tushuncha yoki predmet) beriladi.

2-bosqich. Doskaga ikkita kesishuvchi aylanalar chiziladi va guruhlariga bo'lib beriladi.

3-bosqich. Guruhlar o‘z ob‘ektlari xususiyatlarini o‘z aylanalari ichiga navbatma-navbat yozishadi.

4-bosqich. Xususiyatlar yozib bo‘lingandan so‘ng, bu ikki ob‘ektning umumiy xususiyatlari bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Aylanalardagi umumiy xususiyatlar haqidagi yozuvlar o‘chiriladi va ular umumiy soha ichiga bitta qilib yoziladi.


5-bosqich. O‘quvchilar ikki ob‘ektни taqqoslash natijasida hosil bo‘lgan Venn diagrammasini tahlil qiladilar. Bu ob‘ektlarning umumiy va farqli tomonlariga yana bir bor e‘tibor qaratiladi.

Misol.

8-sinfda “Ko‘pburchaklar” bobi o‘tib bo‘lingandan so‘ng, turli ko‘pburchaklarning xususiyatlarini o‘zaro taqqoslash uchun Venn diagrammasidan foydalanish mumkin.


Faollashtiruvchi mashq. Birinchi ob‘ekt: barcha trapesiyalar to‘plami; ikkinchi ob‘ekt: barcha parallelogrammlar to‘plamidan iborat. Venn diagrammasidan foydalanib, bu ko‘pburchaklarning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlang.

Metod yuqorida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi: O‘quvchilar oldin ikki guruhga bo‘linadi va birinchi guruhga - “trapesiya”, ikkinchi guruhga – “parallelogramm” tushunchasi beriladi. Doskaga ikkita kesishuvchi aylana chiziladi va guruhlarga bo‘lib beriladi. Guruhlar o‘z ob‘ektlari xususiyatlarini o‘z aylanalari ichiga navbatma-navbat yozishadi. Xususiyatlar yozib bo‘lingandan so‘ng, bu ikki ob‘ektning umumiy xususiyatlari bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Aylanalardagi umumiy xususiyatlar haqidagi yozuvlar o‘chiriladi va ular umumiy soha ichiga bitta qilib yoziladi. O‘quvchilar ikki ob‘ektни taqqoslash natijasida hosil bo‘lgan Venn diagrammasini tahlil qiladilar. Bu ob‘ektlarning umumiy va farqli tomonlariga yana bir bor e‘tibor qaratiladi. Natijada, quyidagi ko‘rinishdagi sxematik diagrammani hosil qila boramiz.



Bu diagramma to‘latilgandan so‘ng, bu ko‘pburchaklarning o‘xshashlik tomonlari aniqlanib, diagrammaga tuzatishlar kiritiladi.

Quyida misol tariqasida uchta ob‘ekt: lotin, grek va kirill alifbolaridagi harflar o‘zaro Venn diagrammasi yordamida taqqoslangan.



Bunday darslar o‘quvchi-talabalarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy

tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh-jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- > o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- > o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- > shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- > hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- > o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- > shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- > insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- > o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan turli foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019- y.
2. Abdurahmonov M. Didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyati// Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. T-1996.176-bet
3. Ergasheva G.S. O'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish // Xalq ta'limi, 2004, 3-son, 64-66-betlar
4. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: "Lider Press", 2009
5. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2004.- 78 b.